



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# 2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI .....	12
<b>Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich</b>	
<b>Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI .....	16
<b>Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi</b>	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH .....	20
<b>Abbos Saydullaev</b>	
<b>Iqboloy Choriyorova</b>	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI .....	31
<b>Ibragimova Rayxon Tojibayevna</b>	



# O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI

**Ibragimova Rayxon Tojibayevna**  
**Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,**  
**Raqamli iqtisodiyot yo'nalishi magistranti**  
**E-mail: rayxonibragimova9@gmail.com**  
**Tel.: +998 99 898 18 72**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlashda raqamli iqtisodiyotning keng imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), IoT qurilmalari, geografik axborot tizimlari, elektron monitoring platformalari hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarining ekologik muammolarni samarali aniqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va yashil iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati yoritiladi. O'zbekiston sharoitida suv resurslarini boshqarish, energiya samaradorligini oshirish, atmosfera havosi sifatini yaxshilash, chiqindilarni samarali boshqarish hamda qishloq xo'jaligida resurstejamkor texnologiyalarni keng joriy etish istiqbolli yo'nalishlar sifatida baholanadi. Maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillari va raqamli transformatsiya jarayonlarining o'zaro uyg'unligi asosida ekologik barqarorlikni mustahkamlashning ilmiy-amaliy yondashuvlari asoslanadi. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, suv va yer resurslarini samarali boshqarish hamda davlat ekologik siyosatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** ekologik barqarorlik, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, IoT, ekologik monitoring, resurstejamkorlik, O'zbekiston.

**Аннотация.** В данной статье научно анализируются широкие возможности цифровой экономики в обеспечении экологической устойчивости в Узбекистане. В исследовании раскрывается значение искусственного интеллекта, больших данных (Big Data), устройств IoT, геоинформационных систем, электронных платформ мониторинга и цифровых механизмов управления в эффективном выявлении экологических проблем, рациональном использовании природных ресурсов и поддержке зелёного экономического роста. В условиях Узбекистана перспективными направлениями являются управление водными ресурсами, повышение энергоэффективности, улучшение качества атмосферного воздуха, эффективное управление отходами и широкое внедрение ресурсосберегающих технологий в сельском хозяйстве. В статье обосновываются научно-практические подходы к укреплению экологической устойчивости на основе гармоничного сочетания принципов зелёной экономики и процессов цифровой трансформации. Результаты исследования показывают, что цифровая экономика может служить важным фактором совершенствования систем экологического мониторинга, расширения использования возобновляемых источников энергии, эффективного управления водными и земельными ресурсами, а также повышения эффективности государственной экологической политики.

**Ключевые слова:** экологическая устойчивость, цифровая экономика, зелёная экономика, цифровая трансформация, искусственный интеллект, IoT, экологический мониторинг, ресурсосбережение, Узбекистан.

**Abstract.** This article scientifically examines the broad opportunities of the digital economy in ensuring environmental sustainability in Uzbekistan. The study highlights the significance of artificial intelligence, big data (Big Data), IoT devices, geographic information systems, electronic monitoring platforms, and digital governance mechanisms in effectively identifying environmental challenges, ensuring the rational use of natural resources, and supporting green economic growth. In the context of Uzbekistan, the management of water resources, improvement of energy efficiency, enhancement of air quality, effective waste management, and the widespread implementation of resource-efficient technologies in agriculture are considered promising areas of development. The article substantiates scientific and practical approaches to strengthening environmental sustainability through the integration of green economy principles and digital transformation processes. The findings demonstrate that the digital economy can serve as an important factor in improving environmental monitoring systems, expanding the use of renewable energy sources, enhancing the efficient management of water and land resources, and increasing the effectiveness of state environmental policy.

**Keywords:** environmental sustainability, digital economy, green economy, digital transformation, artificial intelligence, IoT, environmental monitoring, resource efficiency, Uzbekistan.



## KIRISH

XXI asrda ekologik barqarorlikni ta'minlash mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyoti, aholi farovonligini oshirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi ustuvor strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahonda iqlim o'zgarishi, suv resurslarini boshqarish, yer unumdorligini saqlash, atmosfera havosi sifatini yaxshilash hamda energiya samaradorligini oshirish bilan bog'liq vazifalar innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni talab etmoqda. O'zbekiston sharoitida ushbu yo'nalishlar "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [1].

Mamlakatimizda so'nggi yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, suv va yer resurslarini muhofaza qilish hamda ekologik boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha muhim strategik hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasida iqtisodiy rivojlanishga yashil iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish, ekologik muvozanatni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash vazifalari belgilangan [1]. Keyingi islohotlar doirasida esa qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini oshirish, energiya samaradorligini kuchaytirish hamda ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan aniq maqsadli vazifalar belgilab berilgan [2].

Mazkur jarayon zamonaviy texnologiyalar, innovatsion boshqaruv usullari, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli transformatsiyasi bilan yanada samarali amalga oshirilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish orqali ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [3].

Raqamli iqtisodiyot ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalari asosida ekologik xavflarni prognozlash, atmosfera havosi sifati, suv sarfi, energiya iste'moli va chiqindilar oqimini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari kengaymoqda. IoT sensorlari va geografik axborot tizimlari esa qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, yer resurslari holatini kuzatish hamda ekologik nazoratni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli platformalar ekologik ma'lumotlar almashinuvining tezkorligi va shaffofligini ta'minlab, davlat organlari, biznes subyektlari va aholi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlamoqda [5; 7].

Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha iqlim va rivojlanish hisobotida mamlakatning 2060-yilgacha karbon neytrallikka erishish maqsadi iqtisodiy o'sish, iqlimga moslashuv va ekologik samaradorlikni oshirish bilan uzviy bog'liq holda baholangan [4]. Bu esa ekologik siyosatni sanoat modernizatsiyasi, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va raqamli boshqaruv tizimlari bilan uyg'un holda rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlashda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini aniqlash, ularning amaliy qo'llanish yo'nalishlarini tahlil qilish hamda ekologik boshqaruvni raqamli transformatsiya asosida yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik barqarorlik va raqamli iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro ilmiy-amaliy tadqiqotlarda "yashil va raqamli transformatsiya" (twin transition) konsepsiyasi doirasida keng o'rganilmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik maqsadlarga erishish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yashil innovatsiyalarni jadallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani rivojlantirish jarayonida ekologik barqarorlik tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Shuning uchun raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlikning uyg'un rivojlanishi zamonaviy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

UNEP yondashuviga ko'ra, ekologik barqarorlikni ta'minlashda ishonchli, tezkor va ochiq ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Raqamli jamoat infratuzilmasi ekologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi [7]. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ekologik monitoring, chiqindilarni boshqarish, suv resurslari nazorati va yashil moliyalashtirish tizimlarini raqamlashtirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi mamlakatda ekologik yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlarning mustahkam normativ-huquqiy asosini yaratdi [1]. Strategiyada energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqlim o'zgarishiga moslashuv bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan.



2022-yilda qabul qilingan PQ–436-son qaror<sup>1</sup> mamlakatda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash bo‘yicha muhim maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilab berdi. Xususan, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan issiqxona gazlari ajratmalarini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 15 GVtga yetkazish, ularning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 30 foizdan oshirish, YalM birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfini 30 foizga kamaytirish hamda 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish vazifalari belgilangan [2].

Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha O‘zbekistonning asosiy strategik hujjatlaridan biri “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hisoblanadi. Unda elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta’lim va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan [3]. Mazkur strategiya ekologik boshqaruv tizimlariga raqamli monitoring, ochiq ma’lumotlar bazalari, elektron hisobot tizimlari hamda sun‘iy intellektga asoslangan tahliliy platformalarni joriy etish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlashda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini yanada chuqurroq va tizimli o‘rganish uchun keng ilmiy salohiyat mavjud. Mavjud tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish va ekologik boshqaruv masalalari alohida yo‘nalishlarda tahlil qilingan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro integratsiyasi hamda raqamli texnologiyalar orqali ekologik samaradorlikni oshirish mexanizmlarini kompleks tadqiq etish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlashda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, kontent-tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda abstraksiyalash usullari tashkil etadi.

Birinchiidan, normativ-huquqiy tahlil usuli orqali O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik va raqamli transformatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy strategik hujjatlar o‘rganildi. Jumladan, PQ–4477-son qaror<sup>2</sup> bilan tasdiqlangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, PQ–436-son qaror<sup>3</sup> bilan belgilangan “yashil” o‘shish dasturi hamda PF–6079-son Farmon<sup>4</sup> bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasining ustuvor maqsad va vazifalari tahlil qilindi [1; 2; 3].

Ikkinchiidan, qiyosiy tahlil usuli asosida raqamli texnologiyalarning ekologik barqarorlikka ta’siri xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti kesimida o‘rganildi. Bunda OECD, Jahon banki, UNDP va UNEP kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va iqlim barqarorligi bo‘yicha yondashuvlari nazariy-metodologik asos sifatida qabul qilindi [4; 5; 6; 7].

Uchinchiidan, tizimli tahlil usuli yordamida ekologik barqarorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar — energiya samaradorligi, suv resurslarini boshqarish, atmosfera havosi sifati, chiqindilarni qayta ishlash, yashil investitsiyalar va ekologik monitoring jarayonlari raqamli iqtisodiyot elementlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi.

To‘rtinchiidan, tadqiqotda indikatorli baholash yondashuvi qo‘llanildi. Ushbu yondashuv asosida raqamli iqtisodiyotning ekologik barqarorlikka ta’siri turli yo‘nalishlar va ko‘rsatkichlar kesimida baholandi (1-jadval).

1-jadval

Raqamli iqtisodiyotning ekologik barqarorlikka ta’sirini baholash ko‘rsatkichlari

Yo‘nalish	Baholash ko‘rsatkichlari	Kutilayotgan ekologik natija
Raqamli infratuzilma	Internet qamrovi darajasi, sensorlar soni, IoT qurilmalari, ma’lumotlar platformalari	Ekologik ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va monitoring qilish samaradorligini oshirish
Energiya boshqaruvi	Aqlli hisoblagichlar, smart-grid tizimlari, energiya monitoringi platformalari	Energiya iste’molini optimallashtirish va energiya tejamkorligini oshirish
Suv resurslarini boshqarish	Aqlli sug‘orish tizimlari, masofaviy monitoring, GIS texnologiyalari asosidagi xaritalash	Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejamkorligini oshirish
Chiqindilarni boshqarish	Elektron chiqindi monitoringi, QR-kodli kuzatuv tizimlari, logistika platformalari	Chiqindilar hajmini kamaytirish hamda ularni qayta ishlash darajasini oshirish
Ekologik nazorat	Elektron hisobot tizimlari, ochiq ekologik ma’lumotlar bazalari, sun‘iy intellekt asosidagi tahlil vositalari	Ekologik boshqaruvda shaffoflikni ta’minlash va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish
Yashil moliya	Raqamli moliyaviy platformalar, ESG ma’lumotlar bazalari, yashil kreditlarni monitoring qilish tizimlari	Ekologik loyihalarga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va yashil iqtisodiyot rivojlanishini rag‘batlantirish

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son <https://lex.uz/docs/-6303230>

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son <https://lex.uz/docs/-4539502>

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son <https://lex.uz/docs/-6303230>

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlashda raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlari keng bo'lib, ular bir qator ustuvor yo'nalishlarda samarali namoyon bo'lmoqda. Jumladan, ekologik monitoringni raqamlashtirish, suv va yer resurslarini aqlli boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya tizimlarini raqamli nazorat qilish, chiqindilarni boshqarishda elektron platformalarni joriy etish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini ma'lumotlarga asoslangan holda takomillashtirish ushbu yo'nalishlarning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi [2; 5; 7].

Ekologik monitoringni raqamlashtirish O'zbekistonda atrof-muhit holatini tezkor baholash, ekologik xavflarni barvaqt aniqlash va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. An'anaviy monitoring tizimlari ko'pincha davriy hisobotlarga asoslangan bo'lsa, raqamli monitoring atmosfera havosi sifati, suv resurslari holati, chiqindilar hajmi, yer resurslarining holati hamda sanoat chiqindilarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi [7].

Bu jarayonda IoT sensorlari, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, dronlar, GIS texnologiyalari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalari muhim o'rin egallaydi. Xususan, sanoat korxonalarining ekologik ko'rsatkichlarini onlayn monitoring qilish, suv havzalarining holatini avtomatik baholash va shahar hududlarida havo sifati indekslarini real vaqt rejimida e'lon qilish ekologik boshqaruv samaradorligini oshirish hamda aholining ekologik xabardorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi [5; 7].

O'zbekiston uchun suv resurslaridan samarali foydalanish ekologik barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish hajmining yuqoriligi, yerlarning sho'rlanishi va iqlim o'zgarishlari sharoitida raqamli yechimlarni keng qo'llash alohida ahamiyat kasb etmoqda. "Yashil" iqtisodiyot dasturida 1 million gektargacha maydonda suv tejavchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish vazifasi belgilangan [2].

Raqamli iqtisodiyot ushbu yo'nalishda tuproq namligini o'lchovchi sensorlar, masofaviy monitoring tizimlari, GIS xaritalar, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari orqali suv tejamkorligini oshirish imkonini beradi. Natijada suv resurslaridan foydalanish samaradorligi ortadi, yer degradatsiyasining oldini olish imkoniyatlari kengayadi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligi va unumdorligi oshadi [5; 7].

Ekologik barqarorlikni ta'minlashda energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 15 GVtga yetkazish, ularning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 30 foizdan oshirish hamda YaIM birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfini 30 foizga kamaytirish vazifalari belgilangan [2]. Ushbu maqsadlarga erishishda aqlli energiya tarmoqlari (smart grid), raqamli hisoblagichlar, energiya monitoring platformalari va sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlari muhim rol o'ynaydi. Ularning joriy etilishi energiya resurslaridan samarali foydalanish, energiya yo'qotishlarini kamaytirish va yashil energetika tizimlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot ushbu jarayonda aqlli elektr tarmoqlari (smart grid), aqlli hisoblagichlar, energiya iste'molini prognozlash hamda ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi muvozanatni avtomatik boshqarish kabi zamonaviy imkoniyatlarni taqdim etadi. Quyosh va shamol elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmi ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'lganligi sababli, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash tizimlari energiya tarmoqlari barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [5].

Chiqindilarni boshqarish ekologik barqarorlikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli platformalar yordamida chiqindilar harakatini ularning hosil bo'lish manbasidan qayta ishlash korxonalarigacha kuzatish, chiqindi yig'ish transporti harakatini optimallashtirish, ekologik nazorat samaradorligini oshirish hamda aholining ekologik tashabbuslardagi ishtirokini rag'batlantirish imkoniyatlari kengayadi [7].

Ushbu yo'nalishda QR-kodli chiqindi konteynerlari, GPS tizimlari bilan jihozlangan maxsus transport vositalari, mobil ilovalar orqali murojaatlar qabul qilish, chiqindilarni saralashni rag'batlantiruvchi mexanizmlar hamda elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Natijada chiqindilarni boshqarish samaradorligi ortadi, qayta ishlash darajasi oshadi va atrof-muhitga bo'ladigan ta'sir kamayadi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil loyihalarni moliyalashtirish alohida ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, subsidiyalar, grantlar hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini samarali monitoring qilish imkonini yaratadi. Raqamli platformalar orqali ekologik loyihalarning natijadorligi, karbon izi, energiya tejamkorligi va ijtimoiy samaradorligi bo'yicha ma'lumotlarni ochiq va shaffof tarzda yuritish mumkin [5; 7].

Bunday yondashuv investorlar uchun ishonchli axborot bazasini shakllantiradi, yashil loyihalarning shaffofligini yanada oshiradi hamda moliyaviy resurslarni ekologik jihatdan samarali va istiqbolli yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli yashil moliya platformalari ekologik innovatsiyalarni joriy etish, resurstejamkor texnologiyalarni kengaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ekologik muammolarni hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ekologik boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi [4].

Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot ekologik monitoringni real vaqt rejimida tashkil etish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, energiya tejamkorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini boshqarish, chiqindilar harakatini nazorat qilish hamda yashil moliyalashtirish jarayonlarining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi [5; 7]. Shu munosabat bilan atmosfera havosi, suv resurslari, yer holati, chiqindilar va issiqxona gazlari bo'yicha ma'lumotlarni yagona tizimda jamlaydigan raqamli ekologik monitoring platformasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligida tuproq namligi sensorlari, GIS xaritalari, dron monitoringi va mobil maslahat platformalari asosida aqlli sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish suv resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi [2; 5]. Shuningdek, aqlli hisoblagichlar, smart-grid tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi prognozlash texnologiyalaridan foydalanish energiya iste'molini optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi [2; 5].

Tadqiqot natijalari chiqindilarni boshqarish jarayonlarini raqamlashtirishning ham muhimligini tasdiqladi. Xususan, chiqindilarni yig'ish, saralash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish bosqichlarini elektron kuzatuv tizimlari orqali nazorat qilish ekologik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [7]. Bundan tashqari, yashil kreditlar, subsidiyalar, grantlar, yashil obligatsiyalar va ekologik loyihalar samaradorligini baholash imkonini beruvchi yagona raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish yashil moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5; 7]. Ekologik ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash, aholi, tadbirkorlar, investorlar va ilmiy muassasalarning ushbu ma'lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ekologik mas'uliyat va jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytiradi [7]. Shu bilan birga, ekologiya, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yo'nalishlarini integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslangan fanlararo mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlashda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish yashil iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashuv darajasini oshirish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Kelgusida ekologik siyosat va raqamli transformatsiya jarayonlarini o'zaro uyg'un holda rivojlantirish mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi [1; 2; 3; 4].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-4539502>

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-6303230>

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5030957>

[4] World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. 2023.

[5] OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024. Volume 2: Digital Technologies and the Environment. 2024.

[6] UNDP. Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. 2025.

[7] UNEP. Digital Public Infrastructure for Environmental Sustainability. 2024.

[8] Nurmetova, M. J. Raqamli platformalar orqali yashil mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. DOI: 10.5281/zenodo.14246956. 11-son, 2024-yil. 709–714-betlar.

[9] Nurmetova, M. J. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi Axborotnomasi (ilmiy jurnal), № 6/2 (115), 2024-yil. 68–71-betlar.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>